

**“YULDUZLI TUNLAR” ASARI INGLIZCHA TARJIMALARIDA
ONG OQIMI IFODALANISHI**

Radjabova Dildora Raximovna

Buxoro davlat universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası

katta o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Yulduzli tunlar” tarixiy romani asliyatida ong oqimining ifodalanishi hamda inglizcha tarjimalarida qayta yaratilishi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit soʻzlar:** ichki kechinma, poetic obraz, badiiy ifoda, badiiy uslub*

Badiiy psixologizmning ong oqimi sanalmish bevosita shakli orqali asar qahramonlarining ichki dunyosi yanada boyitiladi va ularga chuqur insoniylik hissi beriladi. Ong oqimi usuli o'quvchini voqealar rivoji bilan emas, balki qahramonning ongidagi kechinmalar bilan tanishtiradi.

Asarda Boburning sevgi, siyosat va insoniy fazilatlar bilan bog'liq ichki kechinmalari batafsil bayon etilgan. Boburning fikrlari va tushunchalari voqealarning tashqi ko'rinishidan ko'ra ko'proq ularning ma'naviy ma'nosini aks ettiradi. Bu esa ong oqimi usulining markaziy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Asarda Bobur ichki kechinmalarining chuqurligi tarixiy voqealarning hissiy va shaxsiy kontekstda talqin qilinishiga imkon yaratadi. Boburning Hindiston yurishlari yoki davlat boshqaruvidagi qarorlari nafaqat siyosiy voqealar sifatida, balki uning shaxsiy ehtirolari va shubhalari bilan o'zaro bog'liq holda ko'rsatiladi.

Asarda tasvirlangan manzaralar va muhit Boburning ruhiy holatini yoritish uchun metafora va timsollar bilan boyitilgan. Tungi osmonning yulduzlari va ularning harakati Boburning o'z hayotidagi murakkabliklarni aks ettiruvchi poetik obraz sifatida xizmat qiladi. Bobur va uning atrofidagi boshqa qahramonlarning ichki kechinmalari ong oqimi orqali kontrast holatlarda yoritiladi.

Ong oqimi usuli orqali Bobur real voqealarni o'z xayolotidagi timsollar bilan uyg'unlashtiradi. Bu usul voqealar davomida Boburning o'z xatolari, armonlari va orzulari bilan ichki kurashlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. O'quvchini tarixiy voqealarning hissiy va falsafiy ma'nosini tushunishga undaydi. Ong oqimi usuli G'arb adabiyotidan olingan bo'lsa-da, P.Qodirov uni milliy ruhiyatga moslashtirgan. Boburning o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan oilaviy qadriyatlari, vatanparvarlik va din bilan bog'liq kechinmalari ushbu usul orqali aniq yoritilgan.

O'zbek tilida: *Tasavvurida gavdalangan yong'in alangasidan go'yo uning badani qizib ketganday tuyuldi. Robiyani balo-qazodan asraydigan eng zo'r qalqon ana o'sha olov bo'lishi mumkin! Tohir qaltis istakdan ko'zlari yonib otasiga qaradi. "Aytsammikin? Yo'q! Rozilik bermas!"*[2,20]

Asar qahramonlaridan biri Tohirning ichki monologidan va o'xshatish badiiy ifoda usulidan foydalanilgan ushbu parchaning tarjimasini tahlilga tortamiz.

Bevosita tarjimada: *Takhir began to feel sorry as if the bridge was already crackling in flames. Here is the shield that can save Robiya!*" Takhir looked at his father and uncle. "Should I tell them? No! My father won't agree to run risks. [6,19]

Bilvosita tarjimada: "If the wooden bridge burns..." Tahir felt hot, as if the bridge were already crackling in the flames' embrace. "That's the shield that will save Robia!" Tahir looked at his father and uncle. "Should I tell them? No! Father would never let me take a risk like that". [3,128]

Mazkur hayotiy voqelik Pirimqul Qodirov romanida tarix haqiqatiga mos ravishda ifoda etilgan. Quva hududida kiraverishdagi Qorasuv ko'prigi qulab, qo'shin talafotga uchraydi – bularning barchasi tarixiy manbalardagi ma'lumotlardir. Xususan, "Boburnoma"da ham bu voqeaning "...qalin cherik kelib, ko'rukda tiqilib, qalin ot va teva bu qora suvga yiqilib, zoye' bo'ldi" deya tasodif ekanligi aytiladi. "Yulduzli tunlar" romanida esa muallif bu tarixiy jarayonga badiiy tus beradi: go'yoki Quvasoy ko'prigi tasodif tufayli qulamagan, ya'ni Tohir ismli yigit boshliq bir guruh quvalik yigitlar o'z yurtlarini himoya qilish maqsadida ko'prikn avvaldan "mixlarni sug'urib, to'sinlarni arralab" shikastlab qo'yishadi va dushmanga qarshi chiqadilar. Pirimqul Qodirov shu voqelik orqali Tohir obrazini

asarga olib kiradi va uni roman boshidanoq Bobur taqdiriga bog'lab qo'yadi. Asliyat matnidagi Tohirning tasavvurida gavdalangan yong'in alangasi tahlilga tortilgan tarjimalarda *as if the bridge was already crackling in flames*, ya'ni ko'prik olovda yonib kul bo'layotgandek; *if the wooden bridge burns*, ya'ni yog'och ko'prik yonsa, degan mazmun kasb etgan. Bu esa tarjimonlarning tasavvurini ishga solib, turli vositalardan foydalanganini, qo'shimcha ma'lumotlarni kiritganini namoyon etadi. Aslida esa bu o'rinda qahramonning o'ta tahlikali va xavfli ishga qo'l urgani, ammo oqibati Robiya uchun foydali bo'lishini taxmin qilgani ifoda etilgan.

O'zbek tilida: *Tohir Robiyani esladi-yu yuragi bir orziqdi. Sulh tuzilganini eshitganmikin? Tohir uni juda sog'ingan edi. Qani endi iloji bo'lsa-yu, hozir devor oshib, qo'shni hovliga o'tsa. Robiyaga urush qanday daf bo'lganini aytib berib, uning quvonganini ko'rsa! Lekin qallqlik odobi bunga yo'l bermas, Tohir Robiya bilan faqat yashiriqcha uchrashar edi.*[2,64]

Bevosita tarjimada: *Takhir began to think of Robiya at once, and his heart pounded faster. Oh, how he missed her! He wished to jump over the massive wall to the neighbor yard right now. He wanted to tell Robiya that the war was over, - she probably didn't know about peace, - he wanted to see her happiness! But no way, he would never do such a thing; he would meet Robiya secretly and face to face.* [6,59]

Bilvosita tarjimada: *Tahir immediately remembered Robia and his heart skipped a beat. Ah, how he missed her! He wanted to leap over the wall into the next courtyard right then and there, tell Robia the war was over – she probably hadn't heard about the peace – and see her reaction! But no, he wouldn't do it... He'd meet her secretly, as usual, alone.*[3,86]

Muallifning hikoyasi – bu qahramonning ichki dunyosini butun murakkabligi va tafsilotlari bilan o'quvchiga to'liq ochib berish uchun unga ijodiy erkinlik beradigan aniq badiiy uslub bo'lib, muallif Pirimqul Qodirov ham qahramoni Tohir obrazining ichki kechinmalarini, fikrlarini, ich etini yeyayotgan dardlarini o'quvchiga yetkazishga harakat qilgan. Mutarjimlar ham muallifni to'liq tushungan holda qahramonning ruhiy azoblanishini his qila olishgan hamda o'zbeklarga xos

odobni *He'd meet her secretly, as usual, alone* kabi jummlalar orqali tushuntirgan. Robiyani juda sog'ingan, uni ko'rishni yuragi orziqib kutgan, yangilikni aytib, uni tezroq xursand qilish ishtiyoqida bo'lsa ham o'z millatiga xos andisha, g'urur va hurmat ustunlik qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. О литературном герое. – СПб.: Азбука, 2016. – 704 с.
2. Қодиров П. Юлдузли тунлар; Бобур: Роман. – Т.:Ўзбекистон, 1990. – 462 б
3. С.Ermakova. Babur Starry Nights. – Karimov Foundation, 2021. – P.565
4. Radjabova Dildora Rakhimovna. (2024). DEVELOPMENT OF LITERARY PSYCHOLOGISM IN UZBEK LITERATURE. *Conferencea*, 69–72. Retrieved from <https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3394>
5. Radjabova, Dildora. "PIRIMQUL QODIROVNING" YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45. (2024).
6. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. Starry nights: novel / Bobur. – Samarkand: SamSIFL, 2018. –P.444